

MODAL SO`ZLAR PRESSUPPOZITSIYASI

Muhammadqodirova Feruzabonu Otabek qizi

Qo`qon DPI O`zbek tili va adabiyoti ta`limi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada presuppozitsiyaning pragmatik roli, ahamiyati va modal so`zlarning ma`no jihatdan gap tarkibida qo`llanilib, presuppozitsiya hodisasiga ishora qilishi, yashirin ma`no ifodalashi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, modal so`zlar ifodalagan yashirin ma`no (presuppozitsiya) gapni mazmunan murakkablashtirishi va ayni vaqtida nutqiy tejamlilikni yuzaga keltirishi misollar orqali ochib berilgan.

Kalit so`zlar: til, presuppozitsiya, pragmatika, modallar presuppozitsiyasi, yashirin ma`no, pragmatik aspekt, nutqiy vaziyat, pragmalingvistika, kontekst, modal so`zlarning ma`no turlari,

Presuppozitsiya – til birligining nutqiy vaziyat, matn, til egalarining nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari bilan bog`liq xususiyatlarini yashirin yo`l bilan namoyish etuvchi lingvistik hodisa bo`lib, sifatlarda muayyan tashqi va ichki omillar ta`sirida yuzaga chiqadi va gapda nutqiy tejamlilikni yuzaga keltiradi. U pragmatik hodisa bo`lib, til belgisining nutq bilan bog`liq jihatlarini namoyish qiladi. Bu hodisasi, asosan, til hodisasi sifatida qaralib, unga quyidagi belgilarni asos qilib olishimiz mumkin: **bevosita ifodalanmaslik va gap qurilishidan anglashilish.** Bundan kelib chiqadiki, leksik sathdagi so`z va boshqa birliklardan ifodalanmoqchi bo`lgan ma`nolar ham yaqqol ko`rinmaydi. Balki bu ma`no so`zni sinchkovlik bilan qaralgandagina yuzaga chiqadi. Bu yashirin ma`noni aniqlash presuppozitsiya hodisasining asosiy vazifasidir. Nazariy adabiyotlarda ta`kidlanishicha, presuppozitsiya matnni “semantik jihatdan murakkablashtiradi. Bunday vaqtida ayrim so`z yoki grammatik shakl orqali ifodalangan propozitsiya o`zining eng ixcham shakliga ega bo`ladi. So`zlovchi va tinglovchi uchun uning tushunarli bo`lishida presuppozitsiya yordamga keladi [1:113].

Ma`lumki, shu kunga qadar tilshunoslikda bu hodisaga nisbatan presuppozitsiya, prezumpsiya, tagbilim, ichki ma`no, monema, pragmatik ma`no, sigmantik ma`no kabi terminlar qo`llanilib kelinmoqda. Presuppozitsiya asosiy hollarda gapda muayyan til birligining ishorasi asosida yuzaga chiqadi. So`zlovchi ob`ektiv voqelik haqidagi muayyan axborotni gapda ochiq ifoda etishni xohlamaganda, presuppozitsiyaga yo`l ochiladi.

Tilshunosligimizda mavjud bo`lgan so`z turkumlari o`zining ma`no qirralari, gapdagagi o`rni, vazifasi va o`ziga xos xususiyatlari bilan presuppozitsiya hodisasiga ishora qiladi. Alovida olingan so`zlar sirasiga kiruvchi, asosan, **modal so`zlar** ham kontekst tarkibida ma`lum bir yashirin ma`no ifodalaydi. Aksariyat hollarda modal so`zlarning lug`aviy ma`nosini orqali

gapda muayyan presuppozitsiyaga yo`l ochiladi. Ularning ma`nolarini ifodalab kelgan so`zlar ham gapda ma`lum bir presuppozitsiyaga ishora qiladi va gapning murakkablashuvini yuzaga keltiradi.

Modal so`zlar (lotincha: modalis – “o`lchov”, “usul”) – so`zlovchining o`z fikriga turlicha munosabatini anglatadigan va fikrning aniqligi, rostligi, gumonligi yoki shartliligini ifodalash uchun xizmat qiladigan so`zlar. Ular shaklan o`zarmasligi bilan tavsiflanadi, gap bo`lagi vazifasida kelmaydi, gapning boshqa bo`laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, butun fikrga yoki uning biror qismiga taalluqli bo`lib, odatda, kirish so`z bo`lib keladi. Modal so`zlar ikkita katta guruhga bo`linadi:

I. Fikrning aniqligini ifodalovchi modal so`zlar:

- ❖ fikrning rostligi tasdiqlanadi: darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat (arxaik);
- ❖ fikrning qat`iyligi ta`kidlanadi: shubhasiz, so`zsiz, shaksiz;
- ❖ anglashilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligini bildiradi: tabiiy, o`z-o`zidan;
- ❖ fikrning chinligi eslatiladi: to`g`ri, xoynaxoy, muhaqqaq (arxaik), aslida, darvoqe, rostdan.

II. Fikrning noaniqligini ifodalovchi modal so`zlar:

- ❖ fikrning taxminiyligini bildiradi: shekilli, chog`i, chamas;
- ❖ fikrning gumonli ekanligini bildiradi: ehtimol, balki;
- ❖ fikrning tusmolli ekanligini bildiradi: aftidan;
- ❖ fikrning chinligiga gumon ham, ishoch ham bildiradi: har holda, har qalay;

Modal so`zlarning ma`nolarini ifodalab kelgan so`zlar ham gapda ma`lum bir presuppozitsiyaga ishora qiladi va gapning murakkablashuvini yuzaga keltiradi. Masalan, **“Darhaqiqat, siz to`g`ri ish qildingiz”** (O. Muxtor) gapida ajratib ko`rsatilgan birlik fikrning aniqligini ifodalab keluvchi modal so`z vazifasida kelmoqda va gapda anglashilgan fikrning tasdiq ma`noda ekanligini nazarda tutmoqda, ya`ni “so`zlovchi tinglovchining to`g`ri ish qilganligini tasdiqlamoqda”, degan presuppozitsiya (yashirin ma`no) anglashiladi.

Modal so`zlar nutqda ohang (pauza), yozuvda vergul (,) bilan ajratiladi. Modal so`zlar takror qo`llansa yoki emotsional mazmunli so`z bilan birga kelsa, ma`no kuchayadi. Masalan, **“Xayriyat–xayriyat**, daraning oxiriga yaqinlashgan sayin asov soy sayozlashib, muz tobora yupqalashib bordi-yu, **nihoyat**, qoyatoshlar chekinib, yaylov ko`rindi” (O. Yoqubov). Ushbu gapda “xayriyat-xayriyat” so`zi va “nihoyat” so`zi modal so`z vazifasida qo`llangan. Bu modal so`zlar gap tarkibida o`zi ifodalayotgan ma`no bilan birga qo`shimcha ma`no ham yuklab keladi, ya`ni gapning mazmunidan yana bir qo`shimcha ma`no anglashiladi. Bu esa presuppozitsiya hodisasining yuzaga kelishiga imkon yaratadi. “Xayriyat-xayriyat” takror modal so`zi orqali fikr ifodalayotgan “shaxsning cheksiz quvonchi” kabi yashirin ma`no (presuppozitsiya) anglashilgan. “Nihoyat” modal so`zi orqali esa “so`zlovchi fikri tartibi”

degan presuppozitsiya anglashilgan. So`zlashuv nutqida birdan ortiq modal so`z qo`llanishi mumkin.

Modal so`zlarning ma`no va munosabatiga ko`ra turlaridan yuzaga chiqadigan presuppozitsiyani misollar orqali ko`rib o`tamiz:

1. Ishonch. “**Albatta**, shunday bo`lmoq kerak, - dedi Darveshali” (Oybek). ushbu kontekstda ajratib ko`rsatilgan birlik ishonch ma`nosidagi modal so`z vazifasini bajarib kelmoqda va gapda anglashilayotgan fikrning ishonchli ekanligini ta`kidlamoqda. Bu esa “shunday bo`lishi kerak ekanligiga ishonchi komil”, degan presuppozitsiyani hosil qilmoqda.

2. Guman. “Kanizak, **aftidan**, shuni aytmoqchi emas edi, **shekilli**, noiloj “ha” dedi” (A.Qahhor). Ushbu gapda ajratib ko`rsatilgan so`zlar guman ma`nosini bildiruvchi modal so`zlar bo`layotgan voqelikka va so`zlovchining fikriga nisbatan taxmin, chama, guman kabi ma`nolarni yuklamoqda va “kanizakning fikriga nisbatan shubhalanish”, degan presuppozitsiyani hosil qilmoqda. Bu esa o`z navbatida kontekstning ma`no murakkablashuvini yuzaga chiqarmoqda.

3. Tasdiq. “**Haqiqatan**, Zulfiya she`riyati mardona she`riyat” (E. Vohidov). Ushbu gapda ifodalangan modal so`z orqali ifodalangan fikrga tasdiq ma`nosini kuchaytirmoda va “Zulfiya she`riyati mardona she`riyat ekanligi tasdiqlangan”, degan yashirin ma`no anglashilgan.

4. Fikrni xulosalash. “**Xullas**, ana shu ajriqzordan sal o`tgandan keyin qishloqcha boshlanadi” (Sh.Xolmirzayev). Ushbu kontekstda qo`llangan modal so`z ifodalanayotgan fikrni xulosalab, yakunlab kelmoda, “ajriqzordan o`tgandan keyin qishloqcha boshlanadi” deb umumiy xulosa qilmoqda, bu esa presuppozitsiya xodisasining yuzaga kelishi uchun imkon yaratgan.

5. Fikrning tartibi. “**Avvalo**, insonning qalbi go`zal bo`lmog`i kerak” (O`Hoshimov). Ushbu gapda qo`llangn modal so`z ifodalanayotgan fikrini tartiblashlash uchun ximat qilmoqda va “birinchi o`rinda insonning qalbi go`zal bo`lsin”, degan presuppozitsiya yuzaga kelmoqda.

6. Fikrning dalillanishi. “**Chunonchi**, Movlono ham bu haqida ko`p o`ylagan edi” (O.Yoqubov). Ushbu gapda ajratib ko`rsatilgan so`z modal so`z vazifasida kelmoqda va gapda anglashilgan fikrning to`g`ri ekanligi ko`rsatilmoqda. Bu esa “Movlono ham bu haqida ko`p o`qigani dalillanyapti”, degan presuppozitsiya hodisasining yuzaga keltirmoqda.

7. Achinish. “**Afsuski**, bo`lmadingiz, - dedi Sultonmurod namlangan ko`zlarini artib” (Oybek). Ushbu gapda qo`llangan modal so`z voqelikka nisbatan so`zlovchining munosabatini ifodalab kelmoqda va “Zaynidinng u yerda bo`lmaganiga Sultonmurod achindi”, degan presuppozitsiya (yashirin ma`no) yuzaga chiqmoqda.

8. Quvonch. “**Xayriyat** paxtani ham topshirib oldik” (T.Murod). Ushbu kontekstda ifodalangan modal so`z fikrga quvonch m`nosini yuklab kelmoqda va “Paxtani topshirib olganimizdan xursandmiz”, degan presuppozitsiyani hosil qilmoqda. Bu esa o`z navbatida nutqiy tejamlilikni yuzaga chiqargan.

Ma`lum bo`ladiki, modal so`zlar presuppozitsiyasi gapda nutqiy vaziyat bilan bog`liq holda yashirin tarzda reallashuvchi hodisadir. Uning to`g`ri tushunilishiga nolisoniy omillar – nutqiy vaziyat, kontekst, so`zlovchi va tinglovchiga oldindan ma`lum bo`lgan umumiy bilimlar hamda nutq egalarining til ko`nikmalari yordamga keladi. Presuppozitsiya hodisasi tilning pragmatik aspektini namoyon etuvchi hodisa sifatida kontekst, nutq vaziyati, til egalarining nutq obyekti haqidagi bilimlari tushunchalari bilan zinch bog`lanadi va gapning semantik tuzilishi bilan bog`liq hodisa sifatida mahsus tadqiqotlarni talab etadi.

Foydalanimanadabiyotlar

1. A. Nurmonov, N. Mahmudov. O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –Toshkent, 1992, B-113.
2. A. Nurmonov, Tanlangan asarlar 1-jild. – T. Akademnashr. B.287-306.
3. U.Rahimov, Tagma`no va presuppozitsiya,-T, O`TA.5-son, 2005, B.12-306.
4. N. Mahkamov, Lisoniy ortiqchalik va tejamlilik natijasida yuzaga kelgan desemantizatsiya. - T. O`zbek tili va adabiyoti. 2002. B.25.
5. N. Mahmudov, Presuppozitsiya va gap. –T, 1986. B-28.
6. Sh.Safarov, Pragmalingvistika. –T, 2008.
7. A. Madvaliyev, O`zbek tilining izohli lug`ati. –T, 2006-2008.
8. 5. U.Rahimov, O`zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. –Samaqand, 1994.
9. U.Rahimov, Tagma`no va presuppozitsiya,-T, O`TA.5-son, 2005.
10. M.Mirtojiyev, O`zbek tili semasiologiyasi.-T.: Fan, 2007.
11. R. Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, Hozirgi o`zbek adabiy tili.-T.: Fan va texnologiyalar, 2010.
12. M Rakhimova, O Bazarov, R Jo'rayeva, N Makhmudova. Journal of Positive School Psychology 7 (5), 104-110, 2023
13. Odilovna, Rakhimova Maftuna, and Bazarov Oybek Odilovich. "LINGUOSEMIOTIC STUDY OF UZBEK FOLK PROVERBS." Open Access Repository 9.1 (2023): 236-237.
14. Rakhimova, M. "APPROACHING THE WORD AS A SIGN." Open Access Repository 9.5 (2023): 68-70
15. Nadim, M. H. (2021). ETHNOCULTURAL SITUATION OF UZBEK PEOPLE IN NORTHERN AFGHANISTAN. Theoretical & Applied Science, (6), 490-492.
16. Abdikodirovna, M. S. (2021). Improving the methodology of teaching the topic of nitrogenous organic compounds in higher education institutions on the basis of a differential approach.
17. Turgunov, K., Shomurotova, S., Mukhamedov, N., & Tashkhodjaev, B. (2010). Diaquadichloridobis [quinazolin-4 (1H)-one-κN3] copper (II). Acta Crystallographica Section E: Structure Reports Online, 66(12), m1680-m1680.
18. Шомуротова, И. Н. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ КОМПЛЕКСНЫХ СОЕДИНЕНИЙ. BBC 94 Z 40, 183.